Qoraqalpog’iston faunasining noyob vakillari bo’yicha ilmiy tadqiqotlar

O’zR FA Zoologiya instituti Ornitologiya hamda Umurtqali hayvonlar laboratoriyalari olimlari tomonidan Qoraqalpog’istonning Mo’ynoq va Ellikqal’a tumanlari hududlariga "Qoraqalpog’iston yovvoyi hayvonlarining noyob va yo’qolib borayotgan turlari kadastri" loyihasi doirasida zamonaviy ma’lumotlarni to’plash bo’yicha ekspeditsiya tashkil etildi.

Olimlar Orol dengizining sobiq orollari – Vozrojdenie va Lazarev, Orolqum, Sudoche va Mashankul ko’llari, sobiq Mo’ynoq korfazi va Ellikqal’a qum uyumlariga tashrif buyurdilar.

Ekspeditsiya davomida pushti saqoqush, qizilg’oz (flamingo), qoshiqburun, qoravoy, kichik oq va sariq qarqara, vishildoq oqqush, oqbosh o’rdak, olaqanot, cho’l jiqtog’i, Yegipet qarqarasi kabi noyob qushlar turlari haqida ma’lumotlar olindi.

O’rta Osiyo toshbaqasi, Sharqiy boa konstriktori va boshqalar sudralib yuruvchilar qatoriga kiradi. Karakal, Korsak va kiyinishlar borligi izlarini topdi. Reptiliyalardan O’rta osiyo cho’l toshbaqasi, Sharq bo’g’ma iloni va boshqalarning hisob ishlari olib borildi. Qoraquloq, qorsak va olakuzan izlarining borligi aniqlandi. Kam sonda saqlanib qolgan sayg’oq guruhlari haqida so’rovnoma ma’lumotlari olindi.

Bundan tashqari, chiyildoq gekkoncha, rang-barang chipor ilon, ola putorak, jun oyoqli qo’shoyoq, ukki, haqqush (kvakva), Ispan sirchumchug’i va boshqa ko’plab qiziqarli turlar haqida ma’lumotlar to’plandi.

Shuningdek, ekspeditsiya a’zolari tomonidan tadqiq etilgan hududlarning umurtqali hayvonlari faunasi bo’yicha ham keng miqiyosdagi ma’lumotlar to’plandi hamda noyob hayvonlar va ularni saqlash muammolari haqida mahalliy ma’murlar, o’rmon xo’jaligi qo’mitasi vakillari va Mo’ynoq tumani markazi aholisi bilan suhbatlar o’tkazdilar.